

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA SAMARALI BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Dusanov Noryigit Ernazarovich

MTTDMQTMO instituti  
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasini mudiri, dotsent

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida samarali boshqaruvni takomillashtirish yo'llari keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, innovatsion jarayonlar, integrativ mahorat, tarbiyachi, kasbiy mahorat, ta'lim integratsiyasi.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bugungi kunda tarbiyachi uzluksiz innovatsion izlanishda bo'lishi, fikrlashi, psixologik munosabatlarini o'zgartirishi, shuningdek tarbiyachilar bunday faoliyatga alohida tayyorgarlik ko'rishi kerak bo'lib, bu o'z navbatida ta'lim tashkiloti rahbarlarining asosiy funksiyalaridan biri bo'lgan ta'limni rivojlantirishning uzoq muddatli strategik rejalarini tuzishda asosiy e'tiborni tarbiyachilarning u yoki bu asosda ijodiy faoliyat yuritishlari uchun tushuntirish ishlariga qaratishi lozim. Bu o'z navbatida tarbiyachilarning kasbiy qiziqishlari ko'lamini kengaytirishga, ularning metodik adabiyotlarni o'qib o'rganishdan to nazariy psixologik-pedagogik va tadqiqotlar olib borishiga ham imkoniyatlar yaratadi.

Yaxshi ilmiy-pedagogik tayyorgarlik innovatsion faoliyatning samaradorligini ta'minlaydi. Innovatsion jarayonlarda faol ishtirok etuvchi tarbiyachilar muntazam ravishda o'zini-o'zi rivojlantirishi va ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishining katalizatoriga aylanadi. Ya'ni, mazkur jarayonlarning tezlashishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday pedagoglar bilan ishlash jamoani o'ziga ergashtira oladigan xodimlarni boshqarish va ularning faoliyatini tashkil etish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shuning uchun ta'lim tashkiloti rahbarlari yangilik yaratish va ularni tatbiq etish, ixtirochilar salohiyatidan samarali foydalanish, ularning tajribasini targ'ibot qilish, ommalashtirish, innovatsion faoliyatlarining natijalarini baholash bo'yicha ayniqsa maktabgacha ta'lim tashkilotida va pedagogik jamoa darajasida zaruriy bilim ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur bo'lib bu ularning integrativ mahoratlarini belgilaydi.

Integrativ mahorat - bu umumlashtirilgan mahorat bo'lib, ta'lim tashkiloti rahbarlari boshqaruv faoliyatida ijobiy natijalarga erishish ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishga yo'naltirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti ichki boshqaruvining maqsadini tizimli rejalashtirish va amalga oshirishida zarur hisoblanadi. Mazkur ko'nikmaga ega bo'lmasdan maqsadga erishishning yo'llari, vositalari va erishish muddatini aniq belgilash mushkul. Pedagogika fanining va oldingi tajribalarning integrativ asosdagi xulosalari va tavsiyalari yangi g'oyalarning manbasi hisoblanadi, ular o'z navbatida innovatsion jarayonlarni boshqarish samaradorligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Umumiy holda, o'quv yurtlarida innovatsion faoliyatni tashkil etishga obyektiv va subyektiv omillar sabab bo'ladi. Obyektiv omillarga davlatning yangi ta'lim siyosati ta'lim sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, maktabgacha ta'lim tashkilotining innovatsion faoliyat yo'nalishidagi tajribalarini kiritishimiz mumkin.

Subyektiv omillarga ijtimoiy-hududiy ehtiyoj, maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim-tarbiyaviy faoliyatining rivojlanish jarayoni, pedagoglarning ilmiy-metodik bilim, ko'nikma va malakalari, ilmiy salohiyatining rivojlanishi, o'quv yurti salohiyatining o'sishi, boshqaruv xususiyatlarining o'zgarishi misol bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotiga yangicha yondashuvlarni joriy etish, birinchi navbatda ta'lim

mazmunini yangilash, ilg'or pedagogik texnologiyalar va o'qitishning zamonaviy metodlarini tatbiq etish, ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarishni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning talablariga mos o'zgartirish, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilmiy-pedagogik asoslarini yaratish va takomillashtirish hamda innovatsion ta'lim muassasalarining barcha turlariga xos innovatsion faoliyatning strukturaviy komponentlariga asoslanishga bog'liq.

Ta'lim tashkilotining innovatsion faoliyati jarayonini tashkil etishning pedagogik shartlari sifatida quyidagilar belgilanadi:

1. Innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi nazariy-pedagogik qoidalar majmuasini ishlab chiqish. Nazariy-pedagogik qoidalar majmuasi innovatsion faoliyatning asoslari bilan belgilanib, innovatsion faoliyatning maqsadi, vazifasi, mazmuni hamda uni tashkil etish tamoyillarini o'z ichiga oladi. Ta'lim muassasasini innovatsion faoliyatga jalb etuvchi omillar innovatsion faoliyatni motivlashtirishga sabab bo'ladi. Innovatsion faoliyatni tashkil etish ishlari asosiy maqsadga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi va shu munosabat bilan ta'lim muassasasida asosiy o'zgarishlar vujudga kiyeladi. Mazkur maqsadlarga erishishda qator vazifalarni bajarish zarur:

*birinchidan*, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga mos, bilimli va qobiliyatli bitiruvchilar modelini amalga oshirishga asoslanish (ta'lim mazmunini yangilash);

*ikkinchidan*, davlat ta'lim standartlariga mos ravishda, harakatdagi dasturlarga yangi rivojlantiruvchi ayrim o'zgartirishlarni kiritish;

*uchinchidan*, o'quv rejasining fakultativ va maktabgacha ta'lim tashkiloti ixtiyoridagi soatlar bloklariga yangi modullarni kiritish.

Nazariy ishlab chiqilgan uzluksiz ta'lim g'oyalarini amalga oshirishning dolzarb ehtiyojlarini ifodalaydi. Mazkur g'oya ta'lim va tarbiyaning zamonaviy texnologiyalarini izlash muammolarini vujudga keltiradi va bular subyekt- subyekt munosabatlarida aks etadi.

Ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot salohiyatini shakllantirish. Maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitida innovatsion faoliyatni tashkil etishning muhim asoslari maktabgacha ta'lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot salohiyatini shakllantirish hisoblanadi hamda u tarbiyachi va otionalarning hamkorligi asosida rivojlanadi.

Innovatsion faoliyatni tashkil etishni ta'minlashning asosiy shartlari alohida boshqaruv jihatlari, ya'ni mazkur faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan, yangilangan boshqaruv strukturasi shakllantirish hisoblanadi. Innovatsion faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish munosabati bilan ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni kiritishda barqarorlik vujudga kiyeladi. Bunda eng muhimi, pedagogik jamoaning innovatsion faoliyatga tayyorgarligi va ehtiyojlarini inobatga olib yangiliklarni tanlash hisoblanadi.

Ta'lim tizimining rivojlanishini tizimli boshqarish ta'lim muassasalarining me'yoriy funksiyalarini bajarish bilan alohida innovatsion loyihalarni birlashtiruvchi yagona maqsadga qaratilgan dasturlar doirasida pedagogik jamoa a'zolarini birlashtirishga yo'naltiriladi.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti rivojlanishini boshqarishning yangilangan strukturasi amaliyotga tatbiq etish jarayoni quyidagilarni nazarda tutadi:

Subyekt - direktor, xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosari, metodist, psixolog, pedagoglar, tarbiyachilar faoliyatini tatbiq etish. Mazkur jarayonning samaradorligini ta'minlovchi subyektlarning xususiyatlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi (boshqaruv sifatlari shaxsning yo'naltirilganligi, innovatsion faoliyatga qiziqish, faoliyatga tayyorgarlik va h. k.).

Tatbiq etish jarayonining elementlarni innovatsion modelning mustahkam harakatlanishini qo'llab-quvvatlovchi choralar majmuasi sifatida shakl, metod va vositalarni o'z ichiga oladi. Tatbiq

etishning asosiy shakli pedagogik tajriba-sinov ishlari hisoblanadi va bunda tahlil qilish, natijalarni baholash, boshqaruv subyekti faoliyatining mazmunini takomillashtirish, boshqaruv aloqalarini, munosabatlarini, huquq va mas'uliyatlarini belgilash ishlari amalga oshiriladi.

Mazkur jarayonda funksiyalar taqsimotini tahlil qilishda boshqaruv tizimidagi axborotlar oqimi, hujjatlar aylanishi, ish rejimi, muassasa holati va tasnifi xususiyatlari, lavozimlar bo'yicha ko'rsatmalar o'rganiladi, shuningdek, boshqaruv tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini, innovatsion jarayonlarni amalga oshiruvchi shaxslarning funksiyalarini va innovatsiyalarni zarur axborotlar bilan ta'minlovchi hujjatlar, nizom, tezkor muvofiqlashtirish rejalari va boshqa me'yoriy hujjatlar aniqlanadi.

Mazkur yo'nalishda innovatsiyalarni tatbiq etish metodlari va vositalariga pedagoglarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini pedagogik tahlil qilishni "qo'llab-quvvatlovchi", umumiy maqsadga erishishda innovatsiyalarning ahamiyatiga ishonirish kabi ishbilarmon o'yinlari orqali innovatsion faoliyatning usul va shakllarini yoritish, ilg'or tajribalarga ega bo'lgan malakali xodimlar faoliyatini kuzatish, pedagoglarning o'zaro bir-birini kuzatishi, ustoz-shogird faoliyati, o'qitish amaliyoti bo'yicha qisqacha ma'lumotlar, innovatsion faoliyatni modellashtirish yo'nalishidagi seminarlar, maslahatlar; innovatsion faoliyat (innovatsion jarayonlarni boshqarish) strategiyalarini shakllantirishga ko'proq tajribaga ega bo'lgan tarbiyachilarni jalb etish misol bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarini innovatsion faoliyatga undovchi va mazkur yo'nalishdagi harakatlarini ta'minlovchi asoslar to'rtta asosiy guruhga ajratiladi:

Yangilik kiritish natijasida vujudga keladigan, hurmat-e'tibor, hokimiyat, vakolat va mavqe bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan shaxsiy moddiy qiziqishlar.

Tashkiliy tizimning samarali rivojlanishiga mos ravishda o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirishga intilish.

Jamoaning ma'naviy-psixologik muhitida innovatsion jarayonlarning ahamiyatini anglash.

Tezkor boshqaruvning mazmun va mohiyatini tushunish va mantiqan zaruriyatini qabul qilish.

Ta'lim jarayonini takomillashtirish va unga yangiliklar kiritish jarayonida ta'lim tashkiloti rahbarlarining boshqaruv faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda innovatsiyalarni joriy etish nafaqat mavjud muammolarni bartaraf etish, balki tashkilotning uzoq muddatli strategik rivojlanishini ta'minlashning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlari jamoasi uchun yangiliklarning dolzarbligi, ularning real ehtiyojlardan kelib chiqib tanlanishi va muammolarni tizimli hal etishga qaratilganligi ustuvor vazifa sanaladi. Bunda tanlangan innovatsion vositalarning muassasaning moddiy-texnik bazasi, pedagog kadrlar salohiyati hamda mavjud imkoniyatlariga mos bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, joriy etilayotgan innovatsiyalarning to'la ilmiy asoslanganligi, ularning pedagogik, psixologik va metodik jihatdan puxta ishlab chiqilganligi samaradorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Innovatsion jarayonlarning ta'lim sifatiga, tarbiyaviy ishlar mazmuniga va boshqaruv tizimiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri ularning ahamiyatligini yanada oshiradi. Bu jarayonda yangilik yaratuvchi hamda undan foydalanuvchi subyektlarning — ya'ni rahbarlar, pedagoglar va boshqa mutaxassislarining shaxsiy-professional xususiyatlarini hisobga olish, ularning innovatsiyalar mohiyatini chuqur anglab yetishi, har bir xodimning mas'uliyati va javobgarligini oshirish zarur hisoblanadi.

Bundan tashqari, innovatsion jarayonlarni amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan pedagogik va boshqaruv tavakkalchiliklarini eng kam darajaga tushirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish talab etiladi. Tavakkalchilik darajasini oldindan tahlil qilish, ularning

asoslanganligini aniqlash hamda ehtimoliy salbiy oqibatlarining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash muhim vazifalardan biridir. Shu bilan birga, boshqaruv funksiyalari va mexanizmlarini takomillashtirish, ta'lim jarayonining mazmunini yangilash, pedagogik texnologiyalarni modernizatsiya qilish, ta'lim tashkilotining dasturi va konsepsiyasiga zamonaviy rivojlanish tamoyillarini singdirish innovatsion o'zgarishlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, rahbarlarning boshqaruv faoliyati metodologiyasi innovatsion jarayonlarni boshqarish shartlari va tamoyillariga mos kelgan taqdiridagina joriy etilayotgan yangiliklar kutilgan natijani beradi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotida sifatli va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan zamonaviy ijtimoiy- iqtisodiy o'zgartirishlar bevosita ta'lim tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ta'limni yangilash uni demokratlashtirishni, ijtimoiylashuvi va insonparvarlashuvini, boshqaruvda ma'muriy buyruqbozlik tizimidan voz kechishni, integrativ jarayonlarni kuchaytirish, ta'limning ishlab chiqarish bilan aloqasini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bu jarayonlar ijtimoiy-madaniy vaziyatlarning obyektiv o'zgarishlari bilan bog'liq holda mazkur tizimning innovatsion faoliyatlarga bo'lgan ehtiyojini belgilaydi.

Ta'lim tizimini rivojlantirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar barcha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarishda fan-texnika yutuqlariga asoslangan boshqaruvning eng samarali, innovatsion metodlaridan foydalanishni, boshqaruv yo'nalishida bilim, ko'nikma va malakalarni, yangi shaxsiy va kasbiy sifatlarni talab qiladi. Bu o'z navbatida strategik boshqaruvning zaruriyatini belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshqaruv faoliyatini takomillashtirishda shuningdek, pedagogik xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirishda jamoa muhitida turli ahamiyatga ega bo'lgan xatti-harakatlarni motivlashtirishda va shu qatorda professional faoliyat bilan shug'ullanuvchi boshqaruv subyektlarining ko'nikma va malakalarining rivojlanishida hamda ularning professional mutaxassis sifatida shakllanishlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. R.A.Fatxitdinov. Strategicheskiy marketing. "Piter"-M.:2006 g.
2. R.X.Djurayev, S.T.Turg'unov. Ta'limda menejment. – T.: 2006-y.
3. T.V.Abankina, A.I.Vavilov Upravleniye selevim kapitalom obrazovatel'nogo uchrejdeniya // Spravochnik rukovoditelya obrazovatel'nogo uchrejdeniya. 2008. № 4. S. 16-24.
4. Abdullayeva N.Sh. Pedagogical possibilities of design activity in the process of increasing the qualification of preschool workers// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 8 Number 1 2020 Page 90-95 bet
5. Valiyeva F.R. Ensuring continuity in the training of future professionals in the education system.// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences/ Volume 7 Number 6, 2019. ISSN 2056-5852
6. Valiyeva. F.R., Kurbonov Sh. Continuity in the education system // Wschodnioeuropejskie // East european science journal 12(52)2019 45-52. 2020